

Mavzu: Konstitutsiya baxtimiz poydevori!

Kun shiori: "Huquqiy savodxonlik-davr talabi"

Maqsad: O`quvchilarda davlat ramzlariga bo`lgan hurmatni rivojlantirish, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini o`rganishni, moddalarni sharhlashni bilishi, bola huquqlari to`g`risidagi konvensiyasini bilishini, qonunlarni hurmat qilishni, o`z huquqlarini himoya qila olishini o`rgatish.

Dars turi: noan`ananaviy.


Darsning borishi: Tashkiliy qism salomlashishadi.

Davomat aniqlanadi. Kun, sana haqida suhbat o`tkaziladi.

Natija: O`quvchilarning erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

Foydalanadigan ko`rgazmali qurollar: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning: "Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch", "O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitoblari, shiorlar, plakatlar, devoriy gazetalar, slaydlar, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi risolasi, tarqatma materiallar.

Doskada: "O`zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi,



millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'li nazar, qonun oldida tengdirlar".

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 18-moddasi. O'qituvchi:

Konstitutsiya baxtimiz qomusi

O'zbekiston xalqi:

Inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatni anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda respublika fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib' insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishini ko'zlab, fuqarolar tinchligini va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi. O'zbekiston Respublika Konstitutsiya o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va Konstitutsiya 6 ta bo'lim, 26 ta bob, 128 ta moddadan iborat. Konstitutsiya lotincha "constitutio" so'zining tarjimasi "nizom qoidalar" degan ma'nolarni anglatadi. Har bir inson o'z huquq va burchlarini bilishi lozim. Insonning eng oliy huquqi tinch yashash huquqidir.

Topshiriq: "O'z huquqingizni bilasizmi?" mavzusidagi og'zaki jurnal sahifalari quyidagicha nomlanishi mumkin:

Sahifa. Huquq (tavsifnomasi).

Sahifa. Bilim olish huquqi (yoshlar hayoti va faoliyati haqida).

Sahifa. Barkamol avlod uchun keng imkoniyatlar. (dalillar bilan)

Sahifa. Vatan bizga ishonadi (kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar).

Guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar va namoyish etishlar yuqorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Guruhlarning chiqishlari ketma-ketlik bilan bir-biriga bog'langan holda amalga oshiriladi, iloji boricha guruhlarning namoyishida barcha guruh a'zolarining ishtiroki ta'minlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guruhlar namoyishidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda guruhlar tomonidan namoyish etilgan sahifalarning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiladilar, ushbu mashg'ulot ularni nimalarga o'rgatgani va ular nimalarni bilib olishgani bilan qiziqadi. O'qituvchi kerakli tavsiyalar va tushunchalar beradi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: O'qituvchi jarayonni kuzatishda samimiylikka, o'quvchilarning o'zlarini odob-axloq me'yorlariga e'tiborli bo'lishlikka, faollikka, jonkuyarlikka va talabchanlikka, tezkorlikka, ijodkorlikka undab boradi.

1991 yil 18 noyabrda

O'zbekiston Respublikasi Oliy

Kengashining 8-sessiyasida



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Davlaramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz ham yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uni ardoqlaganlar, ko'z qorachig'idek asraganlar. Davlatchiligimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g'alaba timsoli bo'lgan.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1991 yilning 18 noyabrida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Mazkur hujjatda ta'kidlanganidek, milliy bayrog'imiz davlat suverenitetining ramzlaridan biridir.

U 16 yildan beri mamlakatimiz Prezidenti Devoni, Oliy Majlis palatalari, hukumat binosi, mahalliy boshqaruv idoralari, O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar, yurtimizning o'nlab xorijiy davlatlardagi diplomatiya va savdo vakolatxonalari, konsullik muassasalarida hilpirab turibdi.

Yer yuzida ikki yuzdan ortiq davlat, va albatta, har bir davlatning o'z ramzlari, bayrog'i bor. Har bir bayroq ayricha rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog'imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo'lmasligimizni ko'rsatib turadi.

Prezidentimizning xorijiy mamlakatlarga rasmiy tashriflari davomida bayrog'imiz o'sha yurt ko'chalarini bezaydi. Turli bayram tantanalarida, yurtimiz delegatsiyalari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi

tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'urur va iftixorini yorqin aks ettiradi. Yurtimizdagi bayram shodiyonalari, tantanalar chog'ida ko'chalarimizga ko'rk bag'ishlab turgan bayrog'imiz har birimizda shukronalik hislarini uyg'otadi.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan ulkan e'tibor samarasi o'laroq, xalqaro miqyosda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir yoshlar safi tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, turli sport musobaqalarida g'oliblikka erishgan yigit-qizlarimiz sharafiga yurt bayrog'i baland ko'tarilmoqda. Ana shunday lahzalarda qalblarimizda Vatan tuyg'usi yanada kuchliroq jo'sh uradi, xalqimizning salohiyati, kelajagimizga ishonch yanada mustahkamlanadi.

Davlatimiz bayrog'idagi har bir rang, har bir belgi chuqur ramziy ma'noga ega.

Undagi **moviy rang** tiriklik manbai bo'lgan obihayotni, musaffo osmonimizni, kuch-qudratimizni, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlikni aks ettiradi.

Oq rang – tinchlik, xotirjamlik, yorug'lik ramzi. Shuningdek, bu rang o'zida poklik, beg'uborlik, botiniy go'zallikni ifodalab kelgan. Demak, bayrog'imizdagi oq rang xalqimizning pokiza orzu-umidlarini, yorug'likka, ezgulikka eshligini o'zida namoyon etadi.

Yashil – yasharish va yangilanish, navqironlik va shodumonlik ramzi, shuning barobarida ona tabiatimiz timsolidir. Qizil chiziqlar esa, tomirimizda jo'shib oqayotgan ajdodlar qoni – hayotiy qudrat va davomiylik

nishonasidir. Shuningdek, bunda Istiqlol, Ozodlik uchun qon to'kkan erksevar ota-bobolarimizning orzu-armonlari mujassam.

Bayrog'imizdagi yarim oy va yulduzlar tasviri tarixiy qadriyatlarimiz, umrboqiy an'analarimiz, ma'naviy kuch-qudratimiz bilan bog'liq. Hilol qo'lga kiritilgan mustaqillik, ozodlikni ifodalaydi.

Davlatimiz bayrog'i – o'tmish, bugun va kelajagimizning yorqin timsoli. Qonunda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda yashaydigan boshqa shaxslar bayrog'imizni hurmat qilishlari shart. Zero, unda ruhiyatimiz, g'urur va iftixorimiz, Vatanimiz va xalqimizga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatimiz, kelajakka ishonchimiz mujassamdir.



“O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risidagi” qonun **1992 yil 2 iyulda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 10 sessiyasida qabul qilindi.

Gerbning markazida tasvirlangan - qanotlarini keng yozib turgan **Xumo qushi** – baxt-saodat va erksevarlik ramzi tasvirlangan. Buyuk alloma Alisher Navoiy Xumo qushini barcha tirik jonzodlar ichida eng ezgu deb ta'riflagan.

Gerbning yuqori qismida Respublikaning sobit va barqarorligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Uning ichida yarimoy va besh qirrali yulduz ifodalangan. Quyosh tasviri – O'zbekiston

Respublikasi tanlagan yo'lining nurli bo'lishini va Respublikaning noyob tabiiy iqlim sharoitini ko'rsatib turadi.

Boshoqlar – xalqning rizq-ro'zi bo'lgan g'alla timsolidir. Oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g'o'za shohlari – asosiy yurtning dong'ini dunyoga taratgan asosiy boyligi ramzidir.

Bug'doy boshoqlari va paxta chanoqlari davlat bayrog'iga o'xshagan lenta bilan o'rab qo'yilgan. Bu Respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir.

Davlat madhiyasi

“O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to'g'risida” qonun **1992 yil 10 dekabrda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi.

A. Oripov so'zi, M. Burhonov musiqasi.

Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!

Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Xaqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqorat

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

1994-yil



1 iyul

Ozbekiston Respublikasi milliy valyutasi joriy etildi.

Uyga vazifa: Davlat ramzlari haqida ma'lumotlar yozib kelish.

